

## PUDRAT SHARTNOMASI №4

21«10»2022 yil.

308-13-188-MT/2022-son

Nukus tuman Maktabgacha talim bo'limi (keyingi o'rinlarda "Buyurtmachi" deb yuritiladi) nomidan Ustav asosida harakat qiluvchi Z.Arzibaeva bir tomondan va «Perestroy Max»MCHJ (keyingi o'rinlarda "Bajaruvchi" deb yuritiladi) nomidan Ustav asosida harakat qiluvchi M.Kurbanov ikkinchi tomondan, quyidagilar to'g'risida mazkur shartnomani tuzdilar:

### 1. SHARTNOMA PREDMETI

Bajaruvchi o'z tavakkalchiligiga asoslangan va o'zining hamda Buyurtmachining materiallaridan foydalangan holda Buyurtmachining topshirig'iga asosan quyidagi ishlarni Nukus tuman Maktabgacha ta'lim bo'limiga qarashli №16 va №11. Maktabgacha ta'lim tashkilotlariga jalyuzi pardalarini sotib olish va o'rnatish majburiyatini: Buyurtmachi esa ushbu bajarilgan ishlarni qabul qilish va haqini to'lash majburiyatini oladi.

### 2. SHARTNOMA BAHOSI

Shartnoma bahosi QQS bilan 32 930 000 (o'ttiz ikki million to'qqiz yuz o'ttiz ming) so'mni tashkil etadi.

Shartnoma bahosi o'z ichiga quyidagilarni oladi Nukus tuman Maktabgacha ta'lim bo'limiga qarashli №16 va №11 Maktabgacha ta'lim tashkilotlariga jalyuzi pardalarini sotib olish va o'rnatish .

### 3. TO'LOV SHARTLARI

Ushbu shartnoma bo'yicha to'lov quyidagi tartibda amalga oshiriladi: avans to'lovi bilan bo'lib-bo'lib to'lash

3.2 To'lov shakli: shartnoma narxining 30 % yoki 9 879 000 (to'qqiz million sakkiz yuz etmish to'qqiz ming) so'm miqdorda oldindan to'lov (avans)ni to'laydi va «Buyurtmachi» tomonidan yakuniy 70 % yoki 23051000 ( Yigirma uch million ellik bir ming)so'm to'lov «Bajaruvchi» ishlar bajarilganligini tasdiqlovchi hujjat taqdim qilgandan sung 10 kun ichida amalga oshiriladi.

Shartnoma bo'yicha so'nggi hisob-kitob ishlar bajarilgandan so'ng, qabul qilish jarayonida aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish hisobga olingan holda,

10 kundan kechiktirmay Buyurtmachi tomonidan amalga oshiriladi.

### 4. MAJBURIYATLARNI BAJARISH MUDDATLARI

4.1. Pudratchi ushbu shartnomaning 1.1-bandida nazarda tutilgan ishlarni kalendar rejasida 60-kun ishida bajaradi.

4.2. Buyurtmachi, Pudratchi tomonidan bajarilgan ishlar uchun haq to'laydi.

4.3. Shartnomaning amal qilish muddati:

Boshlanishi - 2022-yil 21-oktyabr

Tugashi - 2022-yil 31-dekabr

## **5. TARAFLARNING MAJBURIYATLARI**

### **5.1. Pudratchining majburiyatlari:**

o'z kuchi va mablag'lari hisobidan ishlarning kalendar rejasida belgilangan hajmda va muddatlarda barcha ishlarni bajarish va Buyurtmachiga loyiha hujjatlariga mos keladigan holatda ishlarni topshirish;

loyihaga muvofiq zaruriy materiallarni, qurilmalar, butlovchi ashyolarni qurilish maydonchasiga yetkazib kelish va ularni qabul qilishni, tushirib olishni, omborga joylashni hamda qurilish davomida ularni saqlashni amalga oshirish;

o'z kuchi va vositalari bilan materiallar, qurilmalar, ashyolarni joylashtirish va ushbu shartnoma bo'yicha ishlarni bajarish uchun zarur bo'lgan barcha muvaqqat binolarni qurish;

ushbu shartnoma bo'yicha ishlarni bajarish uchun jalb qilinayotgan ixtisoslashtirilgan tashkilotlar bilan yordamchi pudrat shartnomalari tuzilganligi haqida Buyurtmachini xabardor qilish va yordamchi pudratchilar tomonidan ishlarning bajarilishini nazorat qilish;

qurilish maydonchasida texnika va yong'in xavfsizligi hamda qurilish maydonchasining qo'riqlanishi bo'yicha zaruriy tadbirlarning bajarilishini ta'minlash;

qurilish obyektlarining sug'urta qilinishini ta'minlash;

qurilishi tugallangan obyektlarni qabul qilish

dalolatnomasi imzolangankeyin 3 kunlik muddatda

qurilish maydonchasidan o'ziga tegishli mol-mulkni olib ketish.

### **5.2. Buyurtmachining majburiyatlari:**

ishlarning kalendar rejasida belgilangan hajmda va muddatda Pudratchiga qurilish maydonchasini topshirish;

shartnomada belgilangan miqdorda va muddatda shartnomaning 1.1-bandida nazarda tutilgan ishlarni bajarganlik uchun Pudratchiga haq to'lash;

Pudratchining yozma xabarnomasini olgan sanadan boshlab 2 hafta ichida obyektini qabul qilib olish.

## **6. TARAFLARNING JAVOBGARLIGI**

6.1. Kechiktirilgan yoki xizmatlar ko'rsatilmagan taqdirda Pudratchi Buyurtmachiga to'laydi har bir kun uchun majburiyatning bajarilmagan qismining 0.5 foizi miqdorida peniya undiriladi kechiktirish, lekin peniyaning umumiy miqdori xarajatlarning 50 foizidan oshmasligi kerak.

6.2. Ko'rsatilgan xizmatlar uchun to'lov o'z vaqtida amalga oshirilmagan taqdirda, buyurtmachi Pudratchiga kechiktirilgan har bir kun uchun 0,4 foizi miqdorida peniya to'laydi lekin muddati o'tgan to'lov summasining 50 foizidan ko'p bo'lmagan miqdorda.

6.3. Agar xizmat belgilangan sifat standartlariga javob bermasa Buyurtmachi belgilangan tartibda tovarni qabul qilish va to'lashdan bosh tortishga, shuningdek Pudratchidan 20% miqdorida aktsepsiz undirishga haqli.

6.4. Ushbu Shartnomada ko'zda tutilmagan tomonlarning javobgarlik choralari O'zbekiston Respublikasi hududida amaldagi fuqoralik qonunchiligi normalariga muvofiq qo'llaniladi.

6.5. Peniya to'lash tomonlarni o'z majburiyatlarini bajarishdan yoki kamchiliklarni bartaraf etishdan ozod etmaydi.

## **7. FORS-MAJOR**

7.1. Taraflar ixtiyoriga bog'liq bo'lmagan, ularni oldindan bilish yoki oldini olish imkoniyati bo'lmagan holatlar (yengib bo'lmas kuch) oqibatida majburiyatlarni bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun taraflardan birortasi ikkinchi taraf oldida javobgar emasdir. Bunday holatlar jumlasiga epidemiyalar, tabiiy ofatlar, harbiy harakatlar kiradi.

7.2. Tegishli savdo palatasi yoki boshqa vakolatli organ tomonidan berilgan guvohnoma yengib bo'lmas kuchning mavjudligi va amal qilishining davomiyligini tasdiqlash uchun yetarli hujjatdir.

7.3. O'z majburiyatlarini bajara olmayotgan taraf yengib bo'lmas kuchning mavjudligi va uning shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarishga ta'siri haqida ikkinchi tarafga xabarnoma berishi lozim.

7.4. Agar yengib bo'lmas kuch holatlari uzluksiz \_\_\_\_\_oy davomida amal qilib tursa va yaqin muddat ichida bekor qilinishi ehtimoli bo'lmasa, mazkur shartnoma taraflardan birining tashabbusi bilan ikkinchi tarafga yozma bildirishnoma yuborish yo'li bilan bekor qilinishi mumkin.

## **8. NIZOLARNI HAL QILISH TARTIBI**

8.1. Ushbu shartnoma bo'yicha yoki u bilan bog'liq holda taraflar o'rtasida kelib chiqadigan barcha nizolar va ziddiyatlar taraflar o'rtasida muzokaralar olib borish yo'li bilan hal etiladi.

8.2. Muzokaralar olib borish yo'li bilan nizolarni hal qilishga erishilmagan taqdirda, mazkur shartnomaning tuzilishi, uning shartlarining o'zgarishi, buzilishi, ijro etilishi, bekor bo'lishi, tugatilishi va haqiqiyliги yuzasidan kelib chiquvchi barcha nizolar, kelishmovchiliklar va talablar O'zbekiston Respublikasi Savdo- sanoat palatasi huzuridagi Hakamlik sudida uning Reglamentiga asosan hakamlik sudyasi tomonidan yakka tartibda ko'rib chiqiladi. Hakamlik sudining hal qiluv qarori taraflar uchun qat'iy va majburiy hisoblanadi.

## **9. KORRUPSIYAGA QARSHI:**

9.1 Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishda Tomonlar korrupsiyaga qarshi, kurash standartlariga, shu jumladan amaldagi qonunchilikka rioya etilishini ta'minlaydi; ya'ni ular, ulaming xodimlaru filiallari, benefitsiarlari va samaradorlik bo'yicha sheriklar bir-birlariga yoki davlat mulki bo'lgan korxonalar xodimlariga pora berish yoki pora berish yo'li bilan moddiy yoki moddiy manfaat olishdan tiyilishlari, tomonlar ushbu xatti-harakatlarining oldini olish choralari ko'rilishini kafolatlaydi.

9.2 Korrupsiyaga qarshi kurash qoidalari buzilgan yoki asosli shubhalar yuzaga kelgan taqdirda tomonlar bir-birlarini darhol yozma (elektron pochta orqali) yoki ishonch telefoni (78 150 26 03) orqali xabardor qilishlari shart. Bunda vaziyatga oydinlik kiritish maqsadida yozma tushuntirish talab qilishga haqli tomonlar 10 (o'n) ish kuni ichida tushuntirish berishlari yoki o'z fikrlarini bildirishlari mumkin.

9.3 Ushbu bobning talablari bajarilmaganda, shu jumladan korrupsiya xavfini belgilangan muddatda bartaraf etilmagan taqdirda, agar ko'rilgan choralar korrupsiya holatini pasaytirmasa, tomonlar boshqa shartnomani bekor qilishga yoki uning bajarilishini to'xtatib qo'yishga haqli.

9.4 Ushbu bobda ko'rsatilgan asoslar bo'yicha shartnomani bir tomonlama bekor qilishni talab qilgan tarafga etkazilgan zarami qoplash qonun hujjatlarida belgilangan. tartibda amalga oshirilishi kerak va ushbu bobda nazarda tutilgan majburiyatlamini buzgan tomon shartnomani bir tomonlama bekor qilganlik uchun zarami qoplashni talab qilishga haqli emas.

### 10. Taraflarning rekvizitlari va imzolari:

**Pudratchi:**  
«PERESTROY-MAX» MCHJ  
Manzil; Nukus tumani, Aqmangit  
guzari b/n  
Bank h/r 20208000601013418001  
Bank nomi AKB «AloqaBank»  
Qoraqalpogiston Respublikasi Nukus  
shaxri filiali  
MFO:00623 INN:306 130 561

**Buyurtmachi:**  
Nukus tuman maktabgacha talim  
bo'limi"  
Manzili: Nukus tumani, Aqmangit guzari  
Bank h/r:100022860352257091100251009  
Bank nomi:Toshkent shahri Markaziy Bank  
Nukus tumani Gaznachilik bo'linmasi  
MFQ:00014 INN:201122919  
OKED;85100 INN:207266 694


Rahbar:

M.Kurbanov

Rahbar:

Z.Arzibaeva



	Hujjat <b>elektron raqamli imzo</b> orqali imzolangan. Elektron raqamli imzoning haqiqiyligini tekshirish uchun <b>QR Code</b> ni skanerlang.	
	Imzolovchi F.I.SH.	ZOYA ARZIBAYEVA MIRZABAYEVNA
	Imzolangan sana	21.10.2022 10:06
	Hujjat kodi	OJ1283512464
	Hulosa kodi	GN8031112457

**YURIDIKALÍQ ÁHMIYETKE IYE HÙJJETLERDÍÑ NÍZAM  
HÙJJETLERINE MUWAPÍQLÍGI HAQQÍÑDA HUQÍQÍY  
JUWMAQ**

GN8031112457

1. Joybardín túri : Shartnama
2. Joybardín ataması: **MTMlerge jalyuzi perdeler satip aliu xam ornatiu**
3. Joybardı islep shıǵıwshı hám kirgizilgen sáne haqqındaǵı maǵlıwmat: Nókis rayonu Mektepke shekemgi bilimlendiriw bólimi tárepinen 20.10.2022 jilda kirgizilgen.

Joybar Puqaralıq Kodeksiniń 386-436st hámde 1998-jıl 29-avgusttaǵı Ózbekstan Respublikası “Xojalıq júritiwshı subektler iskerliginiń shártnamalıq huqıqıy bazası haqqında”ǵı nızamına muwapıq islep shıǵılǵan hám onı qabıl etiw maqsetke muwapıq.

**Nókis rayonu  
Yuridikalıq xızmet  
kórsetiw orayı  
bas yuristkonsulti:**



**G.T.IZEKEEVA**

21.10.2022

**159868 лот юзасидан шакланган дастлабки  
баённоманинг муҳокамаси натижаси бўйича расмийлаштирилган электрон  
баённомаси**

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2022 йил 20 майдаги 276-сонли қарорига асосан дастлабки электрон баённома у расмийлаштирилган кундан бошлаб давлат харидларининг электрон тизимида муҳокама қилиш учун икки иш кунига жойлаштирилди.

Икки иш куни ичида иштирокчилар томонидан танлаш (тендер) ўтказиш натижалари бўйича эътирозлар тушмаганлиги тўғрисида харид комиссияси аъзолари тегишли қарор қабул қилди.

Муҳокама тугаган сана:

21.10.2022 15:44

Комиссия раиси:

YERIMBETOV BAXADIR TAXIROVICH